

**Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA’LUMOT**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefonini (**99 353 93 54**)ga 3-7 aprel kunlari **183 ta** fuqarolar murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligidan kelgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga hafta davomida imtiyozga ega fuqarolardan **e’tirozli 3(1,6%)ta og‘zaki murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy - amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida va **Xorazm viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemorlar** shifokorlar qarovidan, davolash sifatidan;

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy - amaliy tibbiyot markazi Sirdaryo filialida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemor** shifokorlar qarovidan, davolash sifatidan hamda o‘z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi yuzasidan **noroziligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaat** qildilar.

Ushbu murojaatlar yuzasidan hududiy bosh mutaxassislarga telefon orqali murojaatchilarning ma’lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas’ullariga bemorlar e’tirozi o‘rninligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi**.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi xududiy bosh mutaxassislari joylardagi fuqarolar murojaatlari 1-chorak hisobotlari yig‘ilmoqda, taxliliy ma’lumot jamlash jarayonida.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati.**